

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTOR O'RINBASORINING KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Dustov Davron Zulxaydarovich

MTTDMQTMOI O'quv ishlari bo'yicha  
prorektor, mustaqil tadqiqotchi

### Annotatsiya

*Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida direktor o'rinbosarining o'rni va roli yoritilgan. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor o'rinbosarining kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismlari — pedagogik, metodik, boshqaruv, innovatsion va kommunikativ ko'nikmalar ta'lim sifatini ta'minlashda muhim omil sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar, jumladan metodik qo'llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ijodiy muhitni shakllantirish, hamkorlikni yo'lga qo'yish va monitoring tizimini takomillashtirish kabi jihatlar ilmiy asosda yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, direktor o'rinbosari, kasbiy kompetensiya, pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion texnologiyalar, ta'lim sifati, boshqaruv.

### Annotation

*This article examines the ongoing reforms in Uzbekistan's preschool education system, emphasizing the importance of improving educational quality and developing competent and competitive personnel. The study highlights the critical role of the deputy director of preschool educational institutions, focusing on the components of their professional competence, including pedagogical, methodological, managerial, innovative, and communicative skills. The research analyzes the pedagogical conditions necessary for developing professional competence, such as methodological support, the integration of innovative technologies, creating a creative and supportive environment, establishing effective cooperation, and improving monitoring mechanisms.*

**Keywords:** preschool education, deputy director, professional competence, pedagogical conditions, innovative technologies, educational quality, management.

O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonlari izchil davom etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasi bola rivojlanishining eng muhim bosqichi sifatida davlat siyosatida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun, shuningdek sohada amalga oshirilayotgan islohotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida boshqarishni, pedagog kadrlar salohiyatini muntazam rivojlantirishni talab etmoqda.

Ushbu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor o'rinbosarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Chunki u ta'lim-tarbiya jarayonini metodik jihatdan muvofiqlashtirish, pedagoglarning kasbiy mahoratni oshirishini tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta'lim sifati monitoringini amalga oshirishda asosiy tarkibiy bo'g'in hisoblanadi. Direktor o'rinbosari nafaqat boshqaruv faoliyatini amalga oshiradi, balki pedagoglarning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning kasbiy kompetensiyasini to'g'ri yo'naltirish va takomillashtirishda muhim shaxs sifatida maydonga chiqadi.

Zamonaviy shart-sharoitda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbar kadrlarning, ayniqsa direktor o'rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasiga qo'yilayotgan talablar kengayib bormoqda.

Pedagogik jarayonni strategiyalash, bolalar individual rivojlanish trayektoriyalarini ta'minlash, inklyuziv ta'lim tamoyillarini joriy etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi vazifalar ularning kasbiy tayyorgarligi darajasiga bevosita bog'liq. Shu bois, direktor o'rinbosarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy asosda o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor o'rinbosari faoliyatining samaradorligi uning kasbiy kompetensiyasi darajasi bilan bevosita bog'liq. Kasbiy kompetensiya umumiy pedagogik, metodik, boshqaruv, kommunikativ va innovatsion ko'nikmalar majmuini qamrab oladi. Pedagogik kompetensiya bolalar rivojlanishining psixofiziologik xususiyatlarini bilish, ta'lim-tarbiya jarayoni mazmunini to'g'ri tashkil etish, davlat ta'lim standartlarini amalga oshirish bilan belgilanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – montessori, STEM, proyektli ta'lim, o'yin texnologiyalari – bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish direktor o'rinbosarining innovatsion kompetensiyasini kuchaytiradi. Bunda elektron ta'lim platformalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish, raqamli resurslar bilan ishlashni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy kompetensiya rivoji samaradorligini baholash uchun diagnostik usullar, refleksiya, pedagogik monitoring, o'quv-tarbiyaviy natijalar tahlili kabi usullardan foydalanish muhim. Bu jarayon direktor o'rinbosarining taxlil va strategik fikrlash qobiliyatini oshiradi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari, yangi ta'lim standartlari, raqamli resurslar infratuzilmasiga oid loyihalar rahbar kadrlardan yuqori bilim va malaka talab qiladi. Ta'lim jarayonini xalqaro talablarga moslashtirish, inklyuziv ta'limni keng joriy etish, bolalarning individual rivojlanish trayektoriyalarini ta'minlash kabi vazifalar direktor o'rinbosarining kasbiy kompetensiyasini muntazam takomillashtirishni talab etadi.

Shu boisdan, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor o'rinbosari uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarning ilmiy asosda tashkil etilishi nafaqat rahbar kadrlar salohiyatini oshirishga, balki ta'lim sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobokulov O. Maktabgacha ta'limda pedagogik innovatsiyalar va inklyuziya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. 132 b.
2. Shin A.V. Perspektivny razvitiya sistema doskolnogo obrazovaniya Respubliki Uzbekistan. //Maktabgacha ta'lim metodikasi va nazariyasi – Toshkent., – 2020. – № 2. –C.2-6.
3. Henderson, A. T., & Mapp, K. L. (2002). A New Wave of Evidence: The Impact of School, Family, and Community Connections on Student Achievement. National Center for Family & Community Connections with Schools.
4. Valiyeva. F.R. Teoreticheskiye osnovy i evolyutsiya sistema kpi v upravleniya chelovecheskimi resursami. "Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini rivojlantirish: amaliyot va xorijiy tajriba" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to'plami 1-qismi (2024-yil 23-24-may) – T.: Science and Innovation, 2024.
5. Valiyeva F.R., Sharipova G. N. Innovative technologies in improving the management of preschool educational organizations// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/intjecse/v14i5.94 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022
6. Abdullayeva N.Sh. Significance of health-saving technologies in a Preschool educational organization// Abstracts of V International Scientific and Practical Conference, Osaka, Japan 29-31 January 2020, 14-16 bet